



elita^{uz}

Elektron Ilmiy
Jurnal

No.3 (2)
2024

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Abdihakimov Farhod Zafar o'g'li</i> INNOVATSION TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI VA MOHIYATI	3
<i>Jumaniyozova Zarnigor Maxammadi qizi</i> OLIY TA'LIM TIZIMIDAGI KORRUPSIYAVIY HOLATLARNI SODIR ETUVCHI SHAXSLAR TASNIFI	19
<i>Tilavova Sadaf To'lqin qizi</i> O'ZBEKISTON VA GERMANIYADA TADBIRKORLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA TABIATI	26
<i>Qozixonova Duraxshon Nasriddinovna</i> ISLOM HUQUQIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA HALOLLIK TAMOYILI	33
<i>Aliyeva Marjona Obid qizi</i> ELEKTRON TIJORATDA SHARTNOMAVIY MUNOSABATLARGA OID QONUNCHILIKNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	42
<i>Isoqov Ahmadali Komiljon o'g'li</i> SUD ISHLARINI YURITISHDA SHAFFOFLIKNI TAMINLASH ZARURATI VA MOHIYATI	52

SUD ISHLARINI YURITISHDA SHAFFOFLIKNI TAMINLASH ZARURATI VA MOHIYATI

Isoqov Ahmadali Komiljon o'g'li | isaqovahmadali843@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamalakatimizdagi sud tizimida shaffoflikni taminlash zarurati va mohiyatiga oid nazariy va amaliy masalalar, mazkur masalalar bo'yicha yuridik adabyotlarda ilgari surilgan g'oyalar, taklif va mulohazalar, shuningdek xorijiy davlatlar bir qancha xorijiy davlatlar qonuchilik tajribasidan tahlil namunalari ko'rsatib o'tilgan. Tahlillar natijasida sudlar faoliyatida shaffoflikni taminlash zarurati va mohiyati tushunchasi ularning nisbati, mazmuni va ahamyatiga oid nazariy tushunchalar, qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: oshkora ko'rilgan ishlar, halollik, shaffoflik, ochiqlik, oshkoralik, axborot texnologiyalari, huquqiy asoslar, arxivlash, axborotlashtirish, huquqiy hujjatlar, davlat kafolati, huquqiy mexanizm, sud hokimiyati, hokimyatlar tizimi, takomillashtirish, protsessual shakl, jamoatchilik fikri.

THE NEED AND ESSENCE OF PROVIDING TRANSPARENCY IN THE CONDUCT OF COURT CASES

Isoqov Ahmadali Komiljon ogli

Master's degree student of Tashkent State University of Law

Abstract. In this article, the theoretical and practical issues related to the necessity and essence of ensuring transparency in the judicial system of our country, the ideas, proposals and opinions put forward in the legal literature on these issues, as well as examples of analysis from the legal experience of several foreign countries are shown. . As a result of the analysis, the concept of the necessity and essence of ensuring transparency in the activity of the courts, the

theoretical concepts of their ratio, content and importance, proposals aimed at improving the legislation were put forward.

Key words: public affairs, honesty, transparency, openness, transparency, information technologies, legal bases, archiving, information, legal documents, state guarantee, legal mechanism, judicial authority, system of authorities, improvement, procedural form, public opinion

НЕОБХОДИМОСТЬ И СУТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРОЗРАЧНОСТИ ПРИ ВЕДЕНИИ СУДЕБНЫХ ДЕЛ

Исаков Ахмадали Комилжон угли

Студент магистратуры Ташкентского государственного юридического университета.

Аннотация. В данной статье рассмотрены теоретические и практические вопросы, связанные с необходимостью и сущностью обеспечения прозрачности судебной системы нашей страны, идеи, предложения и мнения, высказанные в юридической литературе по этим вопросам, а также примеры анализа из практики. Показан юридический опыт ряда зарубежных стран. В результате анализа выдвинуты концепция необходимости и сущности обеспечения прозрачности деятельности судов, теоретические представления об их соотношении, содержании и значении, предложения, направленные на совершенствование законодательства.

Ключевые слова: общественные дела, честность, прозрачность, открытость, прозрачность, информационные технологии, правовые основы, архивирование, информация, правовые документы, государственная гарантия, правовой механизм, судебная власть, система полномочий, совершенствование, процессуальная форма, общественное мнение.

Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida mamlakatimizda sud-huquq islohotlarini yanada kuchaytirish, sud hokimiyati faoliyati haqida jamoatchilikni xabardor qilib borish tartiblarini aniq belgilab berish, aholining, jamoat birlashmalarining sudlar tomonidan qabul qilnayotgan fuqarolarning huquq va

erkinliklari, qonuniy manfaatlari bilan bog'liq qarorlar haqidagi axborotlardan keng xabardor bo'lib borishini taminlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yangilangan Konstitutsiyamizning 33-moddasida har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega ekanligi bilan bir qatorda davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishi, axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yilishi mustahkamlab qo'yildi.[1]

Ma'lumki, sud hokimiyati davlat hokimiyatining alohida va mustaqil tarmog'i hisoblanadi. Binobarin, Konstitutsiyamizning 11-moddasida O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi - hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanishi o'z ifodasini topgan. Shunday ekan, davlat hokimiyatining muhim tarmog'i hisoblangan sud hokimiyati faoliyatining ochiqligi, ular tomonidan qabul qilinayotgan fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari bilan bog'liq qarorlar haqidagi axborotlardan xabardor bo'lib borishni ta'minlash yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida muhim masalalardan hisoblanadi.

Darhaqiqat, hokimiyatning boshqa tarmoqlariga qaraganda sud hokimiyati faoliyatining ochiqligi masalasi alohida xususiyatga ega hisoblanadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 137-moddasida hamma sudlarda ishlarning ochiq ko'rilishi kafolatlanishi bilan bir qatorda ishlarni yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo'l qo'yilishi haqidagi norma ham nazarda tutilgan. Mazkur konstitutsiyaviy norma mamlakatimizning "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni, Fuqarolik protsessual, Jinoyat-protsessual va Iqtisodiy protsessual kodeklarida hamda Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksida rivojlantirilgan va aniq mexanizmlari nazarda tutilgan.

Biroq shunday bo'lsa-da, sud hokimiyati faoliyatining ochiqligi va ish ko'rishning oshkoraligi sud ishlarini yuritishning demokratik protsessual shakllarining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanishini e'tiborga olgan holda odil sudlov jarayonida qonuniylikni ta'minlash hamda protsess ishtirokchilarining huquqlarini ro'yobga chiqarishda muhim yuridik kafolat

vazifasini bajaradigan maxsus qonun hujjatiga hozirgi kunda zarurat sezilmoqda. Zero, sud ishlarini yuritishda shaffoflikni ta'minlash hamda sudda ish ko'rishning oshkoraligi bu insonlarning sud hokimiyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi, sud qarorlarining qonuniy, asoslantirilgan va adolatli bo'lini ta'minlashdagi muhim omillardan sanaladi. Qolaversa, oshkora ko'rilgan ishlarining ommaviy axborot vositalari orqali yoritilishi sud faoliyatini ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirilishini ta'minlaydi, bu esa muhim tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sud ishlarini yuritishda shaffoflik va oshkoralikni ta'minlash quyidagi ijobiy jihatlari bilan ajralib turadi:

birinchidan, sudda ko'rilayotgan ishlar yuzasidan axborot olish imkoniyatining yaratilishi sud ishlarining sonini kamayishiga ham yordam beradi. Chunki sudning ish bo'yicha hal qiluv qarori yoki hukm chiqarganligi ayni shu ish bo'yicha sudga qilinayotgan murojaatlarning oldini oladi.

Ikkinchidan, sudda ish ko'rishning ochiq va oshkoraligi tamoyili sud qarorlarining asosli, qonuniy va adolatli qabul qilinishini kafolatlashga xizmat qiladi. Sud hal qiluv qarori va xukmning e'lon qilinishi esa sudyalarni ish yuzasidan o'z qarorlarini aniq faktlar bilan asoslashga undaydi. Zero, davlatning obro'si, jamiyatning obro'si sud organlari va sudyalarning qonun me'yorlariga qanchalik rioya qilishiga, ular qabul qilgan qarorlarning adolat me'yorlariga nechog'lik mos kelishiga bevosita bog'liqdir.

Shunday ekan, hozirgi kunda odil sudlov hujjati sanalmish sud hal qiluv qarorlarining qonuniyligi, asosiligi va adolatliligini ta'minlash maqsadida uning tushunarli, hamma uchun ochiq va shaffofligini, bir so'z bilan aytganda hal qiluv qarorlarining transperentligini ta'minlash muhim masalalardan bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-yanvardagi "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-11-son Farmonida ham so'nggi yillarda amalga oshirilgan sud-huquq islohotlari sud hokimiyati mustaqilligini hamda sudlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bilan bir qatorda fuqaro va tadbirkorlarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish imkonini berganligi alohida ta'kidlangan. Shu bilan birga mazkur Farmon bilan tasdiqlangan "2023-2026 yillarga mo'ljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi"ning "Sudyalar hamjamiyatini shakllantirish,

sudyalarni tanlash, lavozimga tayinlash, o'qitish va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish" nomli 3.4.-bandida sudyalar korpusini shakllantirishda ochiqlik va shaffoflik prinsipini yanada kengroq joriy etish belgilab qo'yildi.

"2023-2026 yillarga mo'ljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Harakatlar dasturi"ning 17-bandida "Sudyalar korpusini shakllantirishda ochiqlik va shaffoflik prinsipini yanada kengroq joriy etish" ustuvor yo'nalish sifatida belgilanib, sud tizimidagi rahbarlik lavozimlariga tayinlashda demokratik tamoyillarni keng joriy etish, sudyalar korpusini shakllantirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani o'rganish hamda sohaga ochiqlik va shaffoflik prinsiplarini keng joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Mazkur Harakatlar dasturining 24-bandida sud tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini jadallashtirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilandi. Mazkur bandga ko'ra, ekspert va mutaxassislar bilan birga odil sudlov faoliyatini "korrupsiyasiz soha"ga aylantirish bo'yicha choralarni nazarda tutuvchi reja-jadval ishlab chiqish, xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda ochiq sud majlisida uzluksiz tarzda ko'riladigan ishlar toifalarini belgilash hamda amaliyotga joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish hamda "Sudlar korrupsiyaga mutlaqo qarshi" rukni ostida keng jamoatchilikka axborot berish amaliyotini yo'lga qo'yish nazarda tutildi.

Darhaqiqat, sudlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, sudning ayrim toifadagi ishlar bo'yicha qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari va xukmlarning jamoatchilikka ma'lum qilib borilishi demokratik huquqiy davlatning ajralmas qismi va muhim talablaridandir. Ish ko'rishning oshkoraligini, uning hamma uchun ochiq va shaffofligini, sud qarorlarining esa qonuniyligi, asosiligi va adolatligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasida mustahkamlab qo'yilgan "Davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari har kimga o'z huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishish imkoniyatini ta'minlashi shart", degan normani kafolatlashga xizmat qiladi. Qolaversa, sud qarorining qonuniy, asosli va adolatli bo'lishi ko'p jihatdan sud protsesslarining ochiqligi, har qanday shaxsning sud qarori bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishiga ko'proq bog'liqdir.

Sud hokimiyatiga nisbatan qo'llaniladigan oshkoralik, ochiqlik prinsiplari adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqni amalga oshirishning muhim ko'rinishlaridan biri sifatida sud hokimiyatining tashkiliy-huquqiy masalalarini tartibga soluvchi bir qator xalqaro hujjatlarda o'z ifodasini topganligini qayd etish lozim. Masalan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 10, 11, 19, 29-moddalari, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro paktning 14, 19-moddalari,[2] Bola huquqlari to'g'risida Konvensiyaning 13-moddasi va boshqa hujjatlar shular jumlasidandir.

Shu o'rinda sud hal qiluv qarorlarini jamoatchilikka ma'lum qilib borilishining bir qator ahamiyati va afzallik tomonlari mavjud. Masalan, eng muhimi ishning hal etilishidan manfaatdor bo'lgan shaxslar ishning haqiqiy holatidan xabardor bo'ladilar. Sh.Sh.Shoraxmetovning fikricha, fuqarolik sud ishlarining ochiq, oshkora ko'rilishi ishda ishtirok etuvchilarga, shuningdek sud zalida hozir bo'lgan boshqa shaxslarda ham katta taassurot qoldirib, sud jarayonining tarbiyaviy rolini ta'minlaydi. Ishlarning ochiq ko'rilishi, fuqarolarga sudyalarning ishlari bilan bevosita tanishish, ularning faoliyatini xalq nazorati ostiga olish imkonini beradi va shuning o'zi bilan fuqarolik ishlarining to'g'ri hal etilishini ta'minlaydi.

Oshkoralik sud ishlarini yuritishning demokratik protsessual shakllarining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanib, odil sudlovdagi qonuniylikni amalga oshirish hamda fuqarolik protsessi ishtirokchilarining huquqlarini ro'yobga chiqarishda muhim yuridik kafolat vazifasini bajaradi. Sudda ish ko'rishning oshkoraligi tamoyili sud qarorlarining asosli, qonuniy va adolatli qabul qilinishini kafolatlaydi. Axborot olish imkoniyatining yaratilishi sud ishlarining sonini kamayishiga yordam beradi, chunki sudning ish bo'yicha hal qiluv qarori chiqarganligi ayni shu ish bo'yicha sudga qilinayotgan murojaatlarning oldini oladi. Sud hal qiluv qarorining e'lon qilinishi sudyalarni ish yuzasidan o'z qarorlarini aniq asoslashiga undaydi. Chunki uning tomonidan chiqarilgan hal qiluv qarorlari matbuot orqali yoki olimlar va tahlilchilar tomonidan tanqidga uchrashi mumkin.

Sudlar faoliyatidagi ochiqlik masalalari bir qator jihatlariga ega bo'lib, ulardan biri protsessual ma'noda sud faoliyatining shaffofligi hisoblanadi. Mazkur jihatlar mamlakatimiz milliy protsessual qonun hujjatlari bilan u yoki bu darajada tartibga solingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 249-moddasiga ko'ra, sudning hal qiluv qarori ishning sud

muhokamasi tugaganidan keyin darhol qabul qilinadi. Alohida hollarda, o'ta murakkab ishlar yuzasidan asoslantirilgan hal qiluv qarorini tayyorlash ko'pi bilan besh kunga kechiktirilishi mumkin, ammo hal qiluv qarorining xulosa qismini sud ishning muhokamasi tugallangan majlisning o'zidayoq e'lon qilishi kerak. Ayni vaqtda sud ishda ishtirok etuvchi shaxslar asoslantirilgan hal qiluv qarori bilan qachon tanishib chiqishi mumkinligini e'lon qiladi. Hal qiluv qarorining e'lon qilingan xulosa qismi sudya tomonidan imzolanadi va ishga qo'shib qo'yiladi.[3]

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sudning hal qiluv qarori haqida"gi 2019 yil 24 maydagi qarorining 5-bandida tushuntirish berilishicha, sudlarning e'tibori asoslantirilgan hal qiluv qarorini tayyorlashni kechiktirilishi istisno hollarda, o'ta murakkab ishlar bo'yicha besh kundan ortiq bo'lmagan muddatga yo'l qo'yilishiga qaratilsin. Bunday hollarda hal qiluv qarorining faqatgina kirish va xulosa qismlari tayyorlanadi. Hal qiluv qarorining xulosa qismi ish muhokamasi tamomlangan sud majlisining o'zida sudya tomonidan imzolanadi, o'qib eshittiriladi va ishga qo'shib qo'yiladi. Hal qiluv qarorining xulosa qismi e'lon qilinganda, raislik qiluvchi ishda ishtirok etuvchi shaxslar, ularning vakillari asoslantirilgan hal qiluv qarori bilan qachon tanishishlari mumkinligini tushuntirishi shart va bu sud majlisi bayonnomasida aks ettiriladi. Asoslantirilgan hal qiluv qarorining kirish va xulosa qismlari ish muhokamasi tugallangan kuni e'lon qilingan, matni to'liq bo'lmagan, hal qiluv qarorining kirish va xulosa qismiga so'zma-so'z mos kelishi lozim. Ish bo'yicha qabul qilingan hal qiluv qarorining sanasi, u e'lon qilingan kun hisoblanadi.

Fuqarolik ishlarini adolatli ko'rish va hal etish jarayonlarida oshkora-lik prinsipining amal qilishini ta'minlashda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning vakillari, ayniqsa advokatlarning faolligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham advokat tomonidan fuqarolik ishini sudda ko'rish chog'ida ovoz yozish qurilmalari hamda boshqa texnika vositalaridan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda foydalanish huquqining ta'minlanishi masalasiga alohida e'tibor berish talab etiladi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasiga muvofiq advokat ishni sudda va boshqa organlarda ko'rish chog'ida ovoz yozish qurilmalari hamda boshqa texnika vositalaridan qonunchilikda belgilangan tartibda foydalanish huquqiga ega.[4] Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi

JPKning 19-moddasi yettinchi qismida sud zalida ovozlarni yozib olish, fotosuratga, videoyozuvga, kinoga olishga faqat sud majlisida raislik qiluvchining ruxsati bilan yo'l qo'yilishi belgilab qo'yilgan.[5] Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimiz Fuqarolik protsessual va Iqtisodiy protsessual kodekslarida ochiq sud majlisi ishtirokchilari, xususan, advokatning sud zalida ovozlarni audio-texnika vositalar orqali yozib olish huquqiga ega ekanligi, fotosuratga, videoyozuvga va kinoga tushurish esa sud majlisida raislik qiluvchining ruxsati bilan amalga oshirilishi haqidagi normalar mavjud emas.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Inson huquqlari: Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Iqtisodiy, ijtimoiy, va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt.–T.: Адолат, 1992. - 64 б.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasining " Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi qonun.
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi.